

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

USTRUSHONADA MAVJUD BO'LGAN BA'ZI ZOOLATRIK AN'ANALAR

Almanov Qaxramon Obloqulovich

Guliston davlat universiteti, professor (DSc).

e-mail: almanov20111988@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-6690-5787>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari va ilmiy natijalari tahlil qilinadi. Hududdagi arxeologik yodgorliklar, ekspeditsiyalar faoliyati hamda qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid moddiy madaniyat namunalari o'rganilish darajasi yoritiladi. Shuningdek, Ustrushona tarixini tadqiq etishda arxeologik manbalarning ilmiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ustrushona, arxeologik tadqiqotlar, arxeologik manbalar, arxeologik yodgorliklar, moddiy madaniyat, mo'rorqo'rg'onlar, qadimgi davr, ilk o'rta asrlar.

НЕКОТОРЫЕ ЗООЛАТРИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ, СУЩЕСТВОВАВШИЕ В УСТРУШАНЕ

Алманов Кахрамон Облокулович

Гулистанский государственный университет, профессор (DSc).

Аннотация.

В статье анализируются основные этапы и научные результаты археологических исследований, проведенных на территории Уструшаны. Освещаются археологические памятники региона, деятельность археологических экспедиций, а также степень изученности образцов материальной культуры древнего периода и раннего Средневековья. Кроме того, раскрывается научное значение археологических источников в изучении истории Уструшаны.

Ключевые слова: Уструшана, археологические исследования, археологические источники, археологические памятники, материальная культура, курганные могильники, древний период, раннее Средневековье.

SOME ZOOLATRIC TRADITIONS IN USTRUSHANA

Almanov Qaxramon Obloqulovich

Gulistan State University, Professor (DSc).

Abstract.

This article analyzes the main stages and scholarly results of archaeological research conducted in the territory of Ustrushana. It examines the archaeological monuments of the region, the activities of archaeological expeditions, and the extent to which material culture dating from antiquity and the early Middle Ages has been studied. The article also highlights the scholarly significance of archaeological sources for the study of the history of Ustrushana.

Keywords: Ustrushana, archaeological research, archaeological sources, archaeological monuments, material culture, burial mounds, antiquity, early Middle Ages.

Kirish. Ustrushona qadimgi va ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim tarixiy-geografik o'lkalaridan biri bo'lib, uning tarixini o'rganishda arxeologik manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida turli davrlarga oid shahar xarobalari, qal'alar, manzilgohlar va mo'rorqo'rg'onlarning aniqlanishi o'lkani siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirilgan muntazam arxeologik izlanishlar Ustrushonaning tarixiy topografiyasi, moddiy madaniyati hamda o'troq va ko'chmanchi aholining turmush tarziga oid muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Shu jihatdan, Ustrushonada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari va ilmiy natijalarini umimlashtirish hamda ularning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyatini baholash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Ustrushona tarixini arxeologik jihatdan o'rganish XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlangan bo'lib, dastlabki tadqiqotlarda asosan yozma manbalar, tasodifiy topilmalar va arxeologik yodgorliklar haqidagi ma'lumotlarni to'plashga e'tibor qaratilgan. V. V. Bartold, V. F. Gaydukevich, O. I. Smirnova, N. N. Negmatov kabi olimlarning tadqiqotlari Ustrushonaning tarixiy geografiyasi va arxeologiyasini ilmiy asosda o'rganishda muhim o'rin tutadi. Keyingi davrlarda A. A. Gritsina, M. H. Pardayev, F. E. Toshboyev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan hududdagi shahar va qishloq manzilgohlari, mo'rorqo'rg'onlar hamda ko'chmanchi chorvadorlar moddiy madaniyatiga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu ilmiy izlanishlar Ustrushonaning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixi, tarixiy topografiyasi, moddiy madaniyati va aholi turmush tarzini yoritishda muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan ilmiy yondashuv qo'llanildi. Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari, ekspeditsiya materiallari va ilmiy adabiyotlar tarixiy-qiyosiy hamda tarixiy-tahliliy usullar asosida o'rganildi. Shuningdek, arxeologik yodgorliklarning davrlashtirilishi, hududiy joylashuvi va o'rganilish bosqichlarini aniqlashda

tarixiy-geografik yondashuvdan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarni qiyoslash va umumlashtirish orqali Ustrushonadagi arxeologik tadqiqotlarning asosiy natijalari baholandi.

Muhokama va natijalar (Discussion and results). Jonivorlar qadimgi odamlarning xo'jalik faoliyati va moddiy madaniyatida muhim rol o'ynagan. Shuning uchun ham ba'zi hayvonlar qadimgi odamlar ma'naviy-diniy hayotida ma'lum bir udum va marosimlarni o'tkazishda muhim o'rin egallagan. Bugungi kunda O'zbekiston arxeologlari dafn marosimida it alohida o'rin egallagan yodgorliklarni ochib o'rganganlar. Masalan, Ustrushonada o'rganilgan yodgorliklarda it yoki bo'ri suyaklari jasad yonida, ostadonlarda yoki qabrdagi idishlarda qayd etilgan. Bu holat ushbu jonivorning muqaddas sanalganini va aholi udumlarida bo'ri (it) totemi bilan bog'liq tasavvurlar antik davrdan boshlab keng yoyilganligini ko'rsatadi. Qadimdan it odamzodga nisbatan sadoqat, ilohiy qudratga ega, deb qaralgan. Shunga bog'liq holda, nafaqat chorvadorlar, balki o'troq aholi urf-odatlarida ham itni ilohiylashtirish bilan bog'liq marosimlar ko'p uchraydi.

Voha tadqiqotchisi O. Mamirovning ilmiy izlanishlarida Jizzax viloyati, Zomin tumanida Boshpishag'or qishlog'idagi To'rtko'ltepa yodgorligining janubiy yon bag'rida yodgorlikdan 150 m masofada shurf qazish ishlari chog'ida, IV yarus boshlarida diametri 40–50 sm, chuqurligi 20–25 sm bo'lgan o'racha aniqlanganligi keltirib o'tilgan. Ushbu o'racha ichida it bosh suyagi va uning yuqorisida chappa qilib qo'yilgan kichik hajmli xurmacha topildi. Xurmacha ichiga tuxum solib qo'yilganligi aniqlangan [1]. Bu odat shundan dalolat beradiki, To'rtko'ltepa jamoasining kelib chiqishi prototurkiylar bilan bog'liq ekaniga ishora qiladi.

To'rtko'ltepa materiallarida it kulti va unga bag'ishlangan marosim alohida ikkita soha hisoblanib, ular birgalikda bitta marosimga aylanmoqda (M. O.).

Bo'ri yoki it katta qilgan egizaklar haqidagi e'tiqodiy unsurlar bilan bog'liq shu kabi udumlar boshqa hududlar aholisi ma'naviy madaniyatida ham uchraydi. Ushbu odat Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ham turli joylarda aniqlangan, masalan, eramizdan avvalgi VII–V asrlarga mansub Tagisken dafn inshootlaridan og'zi pastga qaratib ag'darib qo'yilgan idish topilgan [2].

Insoniyat tarixidan ma'lumki, it qo'lga o'rgatilgan eng qadimgi jonivor hisoblanadi. It totemi bilan bog'liq udumlarning Sharq xalqlaridagi ko'rinishlari A. P. Okladnikov, S. P. Tolstov kabi yetakchi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan bo'lib [3], fikrimizcha, itning bosh chanog'i bilan bog'liq udumlar o'tmishda bo'ri bosh chanog'i "kulti" bilan bog'liq bo'lgan. Ibtidoiy qavmlarda "har qanday hayvonning ruhi bo'lib, hayvonni o'ldirish bilan u yo'qolmaydi, agarda hayvon suyaklari bir joyga yig'ib qo'yilsa, unga ruh qaytadi, hayvon qaytadan dunyoga kelishi", yoki ruhning boshqa bir jonzot yoki o'simlikka ko'chib o'tishi haqidagi [4] tushunchalar bor. Etnolog V. N. Chernesovning ta'kidlashicha, qayta dunyoga keluvchi ruh aynan bosh chanog'ida yashaydi, degan tushuncha mavjud bo'lgan. Bo'ri bosh chanog'ini va boshqa a'zolarini e'zozlab asrashning asosida uning qayta dunyoga kelishi dunyoqarashi turgan.

Totemistik xarakterdagi turkiy xalqlar shajarasi boshlanishini ifodalovchi, an'anaviy tarzda keng tarqalgan asotirlardan biri bo'ri topinchi bilan bog'liq asotirdir [5]. Ma'lumki, bo'ri totemi turkiy xalqlarda eng ko'p tarqalgan diniy tasavvurlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, juda ko'p turkiy urug' va qabilalar, jumladan, mashhur Ashina turklari bo'rini "o'z totemi – ilk ajdodi, urug'ining boshlanishi", deb hisoblaganlar. Jumladan, qadimiy afsonalarda bo'ri turkiy qabilalardan bir qismining buyuk ajdodi sifatida ulug'langan va shu boisdan u turkiy xalqlarda muqaddas hayvon sanalgan. Bo'ri ko'plab turkiy urug'larning totemi bo'lgan. Turk hoqonligining bayrog'ida ham bo'ri bosh aks etgan. Mo'g'ullar bo'rini o'zlarining ilk ajdodlari, deb biladilar. Buryatlar esa bo'rini bosh ruh va shomonlarning yordamchisi deb biladilar, yoqutlarda esa u – qadimgi dahshatli xudo Uluu-Toyonning o'g'li. Bundan tashqari, bo'riga xakaslar, oltoyliklar, tuvashlar ham topinadilar. Bo'riga sig'inish odatlari qadimgi o'zbek qabila va urug'lari urf-odatlarida ham saqlanganligini etnograf olimlar ham qayd etadilar. Bundan tashqari, slavyan xalqlari, beloruslarda ham e'tiqodiy qoldiqlar saqlanib qolgan. Shu o'rinda aytish mumkinki, Ustrushona suratlarida Yevroosiyo hududida yashagan ko'plab qadimgi xalqlar ma'naviy hayotini tasvirlaydi va mifologiya, san'at, adabiyot sohalarida uzviy bog'liqlik borligini ko'rsatib turadi. Turk xalqlarining e'tiqodiga aloqador syujetlar butun Yevrosiyo hududlarida uchray boshlashi ham ayni biz o'rganayotgan mintaqada turkiy elatlarning keng yoyilishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi [6]. Jumladan, Samarqand Sug'dining muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lmish Kofir-qal'a yodgorligida ham bir necha sopol muhrlar topilgan bo'lib, ular orasida bola emizayotgan bo'ri tasviri alohida ajralib turadi [7]. Turk xoqonligiga asos solgan Ashina turklarining paydo bo'lishi bilan bog'liq afsonaga ko'ra, turklarning ko'pchiligi dushman qabila tomonidan qirib tashlangach, omon qolgan yosh go'dakni bo'ri emizib katta qiladi. Bo'ri qadimgi turklarning homiy hayvoni hisoblanib, uni e'zozlash (bolalarga ism qo'yish, faxrli unvon sifatida ishlatish, turli buyumlar sirtiga tasvirini tushirish, turli hikoya va rivoyatlarni avloddan-avlodga yetkazish va b.)da o'z aksini topgan [8]. Kofir-qal'a topilmasi aynan ushbu rivoyat bilan bog'liq bo'lib, shunga o'xshash syujetlar Ustrushona Afshinlari saroyi devoriy rasmlarida, Ohangarondan topilgan oltin medalyon va Panjikent ibodatxonasida aniqlangan oltin brakteatda uchraydi [9]. M. Ye. Masson Tan sulolasi yilnomalarida tilga olingan "tukyue" urug'i sardorining "Ashina" ismi bilan Ustrushona hukmdorlarining "afshin" deya atalishi shunchaki aytilishi bir xil so'zlar emasligini e'tirof etadi [10].

O'zbek xalqining moddiy madaniyatida: molxona, qo'ton eshiklari atrofida, tandir-o'choqxonaga kirishda, ba'zan uylar ostonasining ko'zga tashlanadigan joylariga bo'ri jag'i osib qo'yilganligini kuzatish mumkin. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, homilaning tug'ilish jarayonining yengil o'tishi uchun o'zbeklarning qang'li urug'i vakillari ayol panjasiga bo'ri bosh tishi yoki jag'ini bog'lashgan, Jizzax vohasi Andijon o'zbeklari esa chaqaloq beshigiga bo'ri jag'ini ilib qo'yishgan. Nayman, yuz, qo'ng'iroq o'zbeklarida, zominliklarda [11] yangi tug'ilgan bola bo'ri bosh jag' suyagi orasidan o'tkazib olingan. Shuningdek, Q. Berdimurodov ma'lumotlariga ko'ra, o'zbeklarning turk urug'i vakillari ba'zi oilalarida bo'ri bosh quritilgan og'iz terisi avaylab saqlangan. Ko'p farzandli oilalarda chaqaloq dunyoga kelganda, bo'ri bosh og'iz terisi kosadagi issiq suvda ivitilib, yangi tug'ilgan bola bo'ri bosh og'iz terisidan o'tkazib olingan. Ya'ni, chaqaloqning badaniga

teri tegizib olingan. Mazkur rasm-rusumlar majmuida kishilar odatda chaqaloqni "Bo'ri og'zidan olib qoldik, endi unga o'lim yaqinlasha olmaydi, umri uzoq bo'ladi", degan e'tiqodga ishonganlar. Ba'zan chaqaloq bor uyda bo'ri suyagi parchasi tumor sifatida saqlangan va uni ins-jinslardan asraydi, deb hisoblaganlar.

Totemizmd diniy e'tiqodining yuzaga kelishi, shakllanishi qo'y va bo'ri zoomorf tasvirlariga sig'inishning o'zaro bog'liqligi arxeolog M. H. Pardayev tomonidan Ustrushona moddiy madaniyati misolida tadqiq etilgan, muallif "qo'y va bo'ri topinchini birgalikda tadqiq qilmoq kerak" degan taxminni ilgari surgan. Demak, arxeologik qazuv ishlari davomida asosan ilk o'rta asr madaniy qatlamlaridan topilayotgan shohdor qo'chqor haykalchalari urug'ning totem hayvoni bo'ri ruhini chaqirish uchun xizmat qilgan [12]. S. P. Tolstov o'z vaqtida "it kulti kelib chiqishiga ko'ra bo'ri kulti bilan bog'liq" degan taxminga (gipoteza) boradi. Etnolog T. D. Bayaliev qirg'iz xalqining e'tiqodiy qarashlari bilan bog'liq tadqiqotida totem itning bosh chanog'i bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotni keltiradi. Qirg'izlarning qarashlariga ko'ra, uni o'ldirish taqiqlangan, itga zarar yetkazgan kishining farzandi raxit (itii) bo'lib tug'ilgan. Raxit kasali bilan og'rig'an bolani "davolashda" issiq suvga itning boshini solib, yetti kun davomida ertalab bolaga o'sha suvdan sepishgan, so'ngra itning bosh chanog'ini toza oq matoga o'rab qabristonga yoki odam oyog'i tushmaydigan joyga ko'mganlar [13].

Ustrushona yodgorliklarida bo'ri bilan bog'liq unsurlardan tashqari itlar bilan bog'liq unsurlar ham ko'plab aniqlangan. Aslida bo'ri va it orasida biologik farqlar ko'p bo'lmasa-da, qadimgi xalqlar ma'naviy madaniyatida ular turlicha tasvirlanishi mumkin. Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi natijasida ilgari zardushtiylikda va mahalliy e'tiqod olamida muqaddas bo'lgan itning roli past darajaga tushib ketgan.

Qadimda itlar ov va janglarda qatnashgan, yirtqichlar yoki begonalar yaqinlashayotgani to'g'risida ogohlantirgan. O'lgan itlar xuddi xo'jayini singari turli marosimlar bilan dafn etilgan. Odamlarning ehtiyojlari va xohishlarini to'g'ri topgan it ko'proq ovqat va mehrga erishgan. Manjur xalqlarida it (indaxun) soqchilik va u dunyoga borishda marhumning ruhiga yo'l boshlovchilik vazifasini o'taydi. Ba'zida hayvonlar timsol sifatida foydalanilganda it yer osti saltanati timsoli sifatida tasvirlanadi. Jumladan, litvaliklar asotirlarida dafn udumlari asoschisi Shvintorog o'zi bilan birga lochin, ot va itni kuydirishni vasiyat qiladi [14].

Qadimgi turkiy xalqlar diniy qarashlarida ham it alohida o'rin tutadi. Boshqird, qozon tatarlari, chuvash, turkman va yaqutlarda chaqaloq va bolalikning o'tish davrida qo'llaniladigan "sehrgarlik marosimlarida it bosh rolni o'ynagan". Turkiy xalqlar e'tiqodida it yangi tug'ilgan chaqaloqlarning himoyachisi yoki homiysi sifatida ilohiylashtirilgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqning qirg' kunlik kiyimi "it ko'ylak", sochlari esa "itlik soch" deb atalgan. Shuningdek, Toshkent, Farg'ona vodiysi aholisi orasida "it yoqa ko'ylak" iborasi ham keng tarqalgan. It bilan bog'liq udumlar qadimgi turkiy xalqlar marosimlarining markazida turadi [15]. Ayni damda o'zbek xalqi urug'laridan biri bo'lgan qipchoqlarda it bilan bog'liq turli marosim va udumlar jamlanmasi mavjud. Jumladan, yosh bolaning qorni og'rib qolsa, "kinna kiribdi", deb hisoblanib, bolaning qorin qismiga va boshiga non ushog'i silanib, so'ngra itga berilgan. Bu odatlarga ko'ra, yosh bolaning qornida it ruhi joylashgan bo'lgan, degan tasavvur bor. Yovuz ruhlarni "ko'chirma" qilishda itdan foydalanilgan. Ajdodlarimiz odam yoki biror jonivor o'lgach, uning ruhi tanasining muayyan bir qismlarida saqlanib qoladi, deb ishonishgan [16]. Shuni ta'kidlash joizki, nafaqat zoomorf timsolning yaxlit o'zi (masalan, bo'ri), balki tana a'zolari ham alohida-alohida "ilohiy kuch" sifatida qaralib, xo'jalik faoliyati va ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlarida ulardan foydalanilgan. Hattoki hayvonning har bir a'zosi o'ziga xos kult sifatida namoyon bo'lgan [17].

Xojai Serob I mozor-qo'rg'onida ham itning naysimon suyagi, pastki jag' suyagi va ikkita tishi qayd qilingan [18]. Kurkat yaqinidagi qabrlarda idishga it bosh suyagini solib dafn etish aniqlangan [19]. Shirinsoy qabrlarini o'rgangan V. F. Gaydukevich unga alohida e'tibor berib, eftallarda marhumning nigohi yovuz ruhlarni haydashi uchun itga ko'rsatish – "sagdid" (it ko'rdi – M. O.) odati bo'lganligini keltirib o'tadi [20].

Etnograf Yu. B. Simchenko bergan ma'lumotlarga ko'ra, Sibir xalqlarida it shomonga qiyoslanadi va odamzod vafot etishi bilan uning ruhi itga o'tadi, degan tasavvur bilan u ilohiylashtirilgan. "Itni shunchaki urish yoki o'ldirish mumkin emas, faqat qurbonlik uchun qon chiqarmasdan, ilmoq bilan osib o'ldirish mumkin" [21].

O'rta Osiyoda itni yeyish mumkin bo'lmagan jonzot, vafodor do'st, uy va hovlini har balo-qazodan va turli xil ins-jinslardan, shuningdek, yangi tug'ilgan bolalarni himoya qiluvchi jonivor sifatida e'zozlashadi. Turkiy xalqlar e'tiqodida it yangi tug'ilgan chaqaloqlarning himoyachisi yoki homiysi sifatida e'zozlanilgan. Yosh bolaning qorni og'rib qolsa, "kinna" kirgan deb hisoblanib, bolaning qorni atrofi va boshiga lattaga o'ralgan non ushog'i bilan silanib, so'ngra itga berilgan. Bu odatlarga ko'ra, bolaning qornida yovuz ruh joylashgan bo'lib, non silab tashlash orqali bu ruhni haydab yuborishda itdan foydalanilgan. Bu odatlar aholi orasida hozirgacha saqlanib qolgan.

Ustrushonada o'rganilgan yodgorliklarda it suyaklari jasad yonida, ostadonlarda yoki qabrdagi idishlarda qayd etilgan. Bu holat ushbu jonivorning muqaddas sanalganligini va aholi udumlarida it totemi bilan bog'liq tasavvurlar antik davrdan boshlab keng yoyilganligini ko'rsatadi. Qadimdan itga odamzodga nisbatan beqiyos sadoqat ilohiy qudratga ega, deb qaralgan. Shunga bog'liq holda, nafaqat chorvador, balki o'troq aholi urf-odatlarida ham itni ilohiylashtirish bilan bog'liq marosimlar ko'p uchraydi.

Vohamizda o'rganilgan bu ma'lumotlar it bilan bog'liq marosimlarni kengroq tahlil qilishga undaydi. Umuman olganda, etnografik va arxeologik materiallardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, itning aholi e'tiqodidagi "vazifalari"ni umumlashtirgan holda – devlar va ilohlarni ko'ruvchi, narigi dunyo bilan bog'lovchi, narigi dunyoga yo'l boshlovchi, yovuzliklardan himoyalovchi, kasalliklardan saqlovchi, nasl va oilaning ko'payishi va davomiyligini himoyalovchi hamda qurbonlik kabi turlarga ajratish mumkin.

Asotirlar va mifologiyada aks etgan kosmologik olamning uch pog'onali tizimida jonivor va topinch sifatida – baqa quyi qatlamga tegishli bo'lib, yer osti suvlaridan chiqqan [22]. Bir tarafdin, baqa xuddi toshbaqa, baliq yoki boshqa bir dengiz jonivorlari singari yerni o'z yelkasida ko'tarib tursa, ikkinchi tarafdin bir qator muhim kosmologik unsurlarni ochuvchi sifatida talqin qilinadi. Buryat va oltoy turklari afsonalariga ko'ra, baqa teskari yotgan holda

qornida zaminni ushlab turadi [23]. Shu kabi jonivorlar topinchlari to'g'risida turli xalq afsonalari va ertaklari hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Baqa haykalchasi ilk bor O'zbekiston hududida Sopollitepa yodgorligidan topilgan [24]. Baqa topinchi bilan bog'liq moddiy manbalar arxeologik tadqiqotlar jarayonida ko'plab uchraydi. Jumladan, Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda ham ko'plab topilmalar aniqlangan. Shulardan biri Kurkat daxmalaridan topilgan, fayansdan ishlangan bo'lib, er. avv. I – eramizning I asrlariga tegishli [25].

Slavyan xalqlari mifologiyasi va ma'jusiyligida baqa timsoli "tug'ayotgan ayol" tasviri bilan qiyoslanadi va xalq amaliy san'atida saqlanib kelmoqda [26]. Uning asosiy vazifasi yomon ko'z va yovuzliklardan saqlovchi bo'lgan. Baqa timsoli Veda sanskrit madhiyalar to'plami "Rigveda"da alohida "baqa madhiyasi" sifatida bayon etilib, unga ko'ra baqa vaqillashi bahorning va yomg'irli kunlarning yaqinlashib kelayotganini anglatgan [27]. "Avesto"da baqa "xrafstra" deb nomlanib, toza bo'lmagan jonivorlar safida hamma joyda "o'ldirish" mumkin bo'lgan. Qomusiy olim Beruniy ham baqa topinchi xususida eslatib, hindlar unga yuqori darajada sajda qilmaganliklarini aytib o'tadi [28]. Tadqiqotchilar fikricha, baqa timsoli Oy ilohasi bilan bog'liq hisoblanadi. Aytish mumkinki, afsonalarda ularga umumiy xususiyatlar va bir xil unsurga taalluqli deya baho berilib, ikkalasi ham yer-suv unsurini birlashtirgan o'zlikka ega ekanligi ta'kidlanadi. U yomg'ir va tuman in'om etuvchisi hisoblangan. Oy yer unsuri bilan bog'liq bo'lib, sovuqlik, zulmat va ayollik ibtidosi hisoblangan. Bundan tashqari, u hayvonot va nabotot olamining hosildorligi va ko'payishi uchun mas'ul bo'lib, o'zida tug'ilish va qayta tirilish homiysi kabi xususiyatlarni jamlagan. Ustrushona zargarligi tarixini o'rgangan Z. Umarova fikricha, Ustrushona zargarligi qo'shni Sug'd zargarligi bilan ko'p jihatdan o'xshashdir [29]. Jumladan, stilistik yaqinligi, taqinchoqlar ansamblida analogik buyumlar mavjudligi va taqish an'alarining o'xshashligi kuzatiladi. Ustrushona zargarlik san'atining shakllanishida esa ko'proq Kushon zargarlik san'ati ta'siri mavjud [30]. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ayollar zargarlik buyumlari diniy-sehr funksiyasiga ko'ra uchta asosga ega: apotropik (qo'riqlovchi, asrovchi, himoyalovchi), hosildorlik va ko'payish va umidvorlik [31]. Ushbu tasavvurlar baqa obrazi asrovchi tumor sifatida ma'lum bir transformatsiya natijasida XIX asrgacha saqlanib kelgan. Qoraqalpoq xalqi ayollar taqinchoqlarida "baqa tuyma" nomi bilan ataluvchi taqinchoqlar voyaga yetgan qiz va kelinlarga taqilgan [32].

Ustrushona qadimgi aholisi e'tiqodida baqa topinchi dastlab o'troq dehqonchilik madaniyati uchun asosiy mafkura hisoblangan yer-suv muqaddasligi bilan bog'liq hosildorlik, farovonlik timsollaridan biri bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning tarqalish hududi kengayib borgan. Bir tomondan, hosildorlik himoyachisi va homiysi, ikkinchi tomondan, faqatgina o'simlik hosilining himoyachisi emas, balki insonning o'zini va naslining himoyachisi sifatida ham qabul qilina boshlaydi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumiy ma'noda Ustrushonada baqa topinchi boshqa jonivorlar topinchi singari aholi ongida o'z egasiga sog'liq, farovonlik, serfarzandlik, yomon ko'zdan asrash va uzoq umr ko'rish kafolati vazifasini o'tab kelgan. Uzoq davr mobaynida ushbu topinch aholi ma'naviy hayoti, maishiy turmushi va amaliy hunarmandchiligida o'z tasvirini saqlab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamirov O. U., Gritsina A. A., Rahimov K. A. To'rtko'ltepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // O'zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar 2018–2019-yillar. – 12-son. – Samarqand, 2020. – B. 134–140.URL: [2018–2019-yillar, 12-son to'plami](#)
2. Итина М. А. Реконструкция некоторых обрядов методом аналогий // Этнография и археология Средней Азии. – Москва, 1979. – С. 18–19.URL: [Этнография и археология Средней Азии — katalog/mundarija](#)
3. Окладников А. П. История Якутии. – Т. I. – Якутск, 1949. – С. 360–361.URL: [НЭБ — История Якутии, т. I](#)
4. Тайлор Э. Б. Первобытная культура. – Москва, 1989. – С. 254–276.URL: [Milliy kutubxona katalogi — Первобытная культура](#)
5. Pardayev M. H., G'ofurov J. I. Ustrushonaning ilk o'rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida). – Toshkent, 2016. – B. 262. Bibliografik tasdiq: [Manbani keltirgan ilmiy nashr](#)
6. Воронина В. Л., Негматов Н. Н. Открытие Уструшаны // Наука и человечество. – Москва: Знание, 1975. – С. 51–71.URL: [Наука и человечество — skanerlangan nashr](#)
7. Бердимуратов А., Богомолов Г. Тюрки в искусстве раннесредневекового Согда. – С. 66. [Maqola bibliografik qayd etilgan PDF](#)
8. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2001. – B. 83. URL: [Universitet elektron kutubxonasi — O'zbek davlatchiligi tarixi](#)
9. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B. 200. Bibliografik tasdiq: [Ilmiy maqoladagi bibliografik qayd](#)
10. Бердимуратов А., Богомолов Г. Тюрки в искусстве раннесредневекового Согда. – С. 66–67. URL: 7-manbadagi bilan bir xil — [Bibliografik tasdiq](#)
11. Массон М. Е. Золотой медальон Византийского облика из Ахангарана // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1972. – № 7. – С. 37.[Maqola haqidagi bibliografik qayd](#)
12. Alibekov U. O'zbek xalqining an'analari tizimida "chilla" etnologik udumining astronomik bilimlar bilan bog'lanishi xususida // O'zbekistonda moddiy madaniyat va etnomadaniy jarayonlar. – Termiz, 2010. – B. 60–64.

- ▣ Pardayev M. H. Qo'y va bo'ri ruhiga sig'inishning o'zaro bog'liqligi haqida // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1995. – B. 42–46. [Manbani keltirgan ilmiy PDF](#)
13. Баялиева Т. Д. Доисламские верования и их пережитки у киргизов. – Фрунзе, 1972. – С. 19–20. URL: [Rossiya davlat kutubxonasi — kitob yozuvi](#)
14. Мифы народов мира: энциклопедия / гл. ред. С. А. Токарев. – Т. 2. – Москва, 1992. – С. 451. URL: [Omsk davlat universiteti kutubxonasi — T. 2, 1992](#)
15. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков / отв. ред. Э. Р. Тенишев, А. В. Дыбо. – Москва: Наука, 2006. – С. 731. URL: [Kitobning elektron sahifasi/PDF](#)
16. Mirzayev T., Jo'rayev M. "Avesto" mifologiyasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi // O'zbekiston tarixi. – Toshkent, 2001. – B. 36. URL: [Maqola matni keltirilgan elektron nashr](#)
17. Alibekov U. O'zbek xalqi etnomadaniyatida bo'ring "bosh chanog'i kulti" xususida // O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand, 2018. – № 1 (16). – B. 24–32.
18. Toshboyev F. E. Ustrushona chorvadorlarining uy hayvonlari bilan bog'liq diniy tasavvurlari // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2018. – № 1. – B. 43–45.
19. Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширинская в Узбекистане // Советская археология. – 1952. – С. 334. URL: [Советская археология, XVI, 1952 — rasmiy PDF](#)
20. Гайдукевич В. Ф. Могильник близ Ширинская в Узбекистане // Советская археология. – 1952. – С. 351. URL: [Советская археология, XVI, 1952 — rasmiy PDF](#)
21. Симченко Ю. Обычная шаманская жизнь (этнографические очерки) // Российский этнограф. – Вып. 7. – Москва, 1993. – С. 76. URL: [CiNii Books — Российский этнограф, вып. 7](#)
22. Мифы народов мира / гл. ред. С. А. Токарев. – Т. II. – Москва: Советская энциклопедия, 1992. – С. 84. URL: [Kutubxona katalogi — T. 2, 1992](#)
23. Каташ С. Мифы, легенды Горного Алтая. – Горно-Алтайск, 1978. – С. 14. URL: [НЭБ — Мифы, легенды Горного Алтая](#)
24. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977. – С. 84. URL: [Rossiya davlat kutubxonasi — kitob yozuvi/nusxasi](#)
25. Мирбабаев А. М. Дахмаки Курката: раскопки и исследования. Материальная и духовная культура Уструшаны // Древняя Уструшана: города, их локализация и хронология. – Душанбе, 2005. – С. 395. [Ilmiy manbadagi bibliografik qayd](#)
26. Рыбаков Б. А. Язычество древних славян. – Москва: Наука, 1981. – С. 45. URL: [Rossiya FA Arxeologiya instituti — kitob](#)
27. Ригведа. Мандалы I–IV / изд. подготовила Т. Я. Елизаренкова. – Москва: Наука, 1989. – С. 767. URL: [Ригведа. Мандалы I–IV — elektron nashr sahifasi](#)
28. Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия). – Москва, 1963. – С. 122. URL: [НЭБ — Минералогия, 1963](#)
29. Умарова З. Х. История развития ювелирного искусства таджиков (V – начало XX вв.): автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2009. – С. 13. URL: [Avtoreferatning elektron matni](#)
30. Умарова З. Х. История развития ювелирного искусства таджиков (V – начало XX вв.). – Душанбе, 2009. – С. 13. URL: [Dissertatsiya bibliografik sahifasi](#)
31. Мамбетова А. И. Семиотика ювелирных украшений в традиционной культуре Казахстана: автореф. дис. ... канд. культурологии. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 18. URL: [Avtoreferatning elektron matni](#)
32. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1988. – С. 49–50. URL: [O'zbekiston elektron kutubxonasi — Ювелирное искусство Узбекистана](#)